



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
JIZZAX FILIALI



**KOMPYUTER ILMLARI VA
MUHANDISLIK TEXNOLOGIYALARI**
XALQARO ILMIY-TEXNIK
ANJUMAN MATERIALLARI
TO'PLAMI
1-QISM



26-27-SENTABR
2025-YIL



Google
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**KOMPYUTER ILMLARI VA MUHANDISLIK
TEXNOLOGIYALARI**
mavzusidagi Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami
(2025-yil 26-27-sentabr)
1-QISM

JIZZAX-2025

Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2025-yil 26-27-sentabr. 355-bet.

Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarini qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma'ruza tezlari to'plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas'ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay'ati a'zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O'ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo'rayev M.M.

Mazkur to'plamga kiritilgan ma'ruza tezlilarining mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

etishning ustuvor yo'nalishlari, ijtimoiy va pedagogik-psixologik asoslari. 2022 yil. 250-bet.

5. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, O'zbekistonda bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati. Jamiyat va innovatsiyalar. 2021 yil 10b.

6. Xosilmurodov Islom Xamitolim o'g'li, Sultonaliyeva Gulshona Sherzod qizi. "Tafakkur uslubining falsafiy-metodologik tahlili". "Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dalzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar" Ilmiy-amaliy konferensiya 2022 yil. –B.549-552.

7. Xosilmurodov I.X. Informatsion globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. "Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari" xalqaro-ilmiy texnik konferensiya. 2022 yil. 61-64b.

8. Islom Xosilmurodov Falsafiy tafakkur uslubining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2022 yil noyabr. 982-990b.

9. Xosilmurodov Islom, Kalandarov Mexroj Abu Nasr Farobiy Falsafasida axloq masalasi. Pedagog respublika ilmiy jurnali. 2023.04.15. 434-437b

10. Islam Hasilmurodov. SOCIO-PHILOSOPHICAL IMPORTANCE OF THE SCIENTIFIC WAY OF THINKING. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL. 2022. Noyabr. 138-147b.

OKKOZIONALIZMLARNING BADIY MATNDAGI LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

PhD, dots. Ibragimov Xayrulla Hamdamovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

xayrulla@jbnuu.uz

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnda okkazonalizmlarning badiiy matndagi o'rni hamda uning lingvistik xususiyatlari, okkazonalizmlar vositasida ijodkor asar qahramonlarining tabiati, ruhiy holati, hayot tarzi va ruhiy kechinmalarini ifodalashi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Lingvistika, lingvistik tahlil, matn, badiiy matn, uzual, okkazonial, denotat, semantika, ta'sirchanlik.

Barchamizga ma'lumki, obrazlilik, tasviriylilik, ekspressivlik kabi terminlar qo'llanishi jihatidan keng ma'nolidir. Ularning ba'zilar (obrazlilik, tasviriylilik) adabiyotshunoslik termini sifatida ham, tilshunoslik termini sifatida ham qo'llanadi. Mana shunday hodisalardan biri okkazonalizmlardir.

Tilimizdagi mavjud so'zlar ma'nolarining o'sish-o'zgarishi – ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi tarzida ro'y beradi. Borliqdagi narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi o'laroq ham qo'llanadi. Bunday vaqtda bitta so'z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi o'laroq xizmat qiladi.

Shu mulohazalarni inobatga olib, badiiy asarlarning taraqqiyoti va tahlilida okkazonalizmlarning muhim o'ri mavjud deb hisoblaymiz. Badiiy okkazonalizmlar yaratilishida badiiy matn asosiy obyekt hisoblanadi. Shoir yoki yozuvchi o'zining xayoliy dunyosini kitobxonga yetkazish uchun eng nozik ma'no qirrasiga ega bo'lgan so'zlardan foydalanishga va ushbu so'zni topishga intiladi va harakat qiladi. Natijada tasodifiy so'zlar – okkazonalizmlardan foydalanadi.

Har bir ijodkorlar tasvir maqsadidan kelib chiqib, so'zlarni tanlab ishlatish bilan chegaralanib qolmasdan, aksincha, so'zlar mazmunini asar qahramonlarining tabiati, ruhiy holati, hayot tarzi va ruhiy kechinmalariga moslashtirib o'zgartiradilar va shu tariqa tildagi avvaldan mavjud so'zlar yangi ma'no nozikliklari bilan sayqallanib boraveradi. Shu bilan birgalikda shoir yoki yozuvchi tomonidan qayta ishlangan til birliklari badiiy bo'yodqorligi va ta'sirchanligi bilan alohida ahamiyat kasb etib boraveradi.

Badiiy adabiyotda ijodkorning yaratayotgan badiiy olamini to'laonli ifodalash uchun nafaqat tilde mavjud birliklaridan foydalanishga, balki, badiiy qimmatga ega bo'lgan boshqa birliklarni yaratishga ham ehtiyoj tug'iladi. Misol uchun, *qora* so'zi rang-tus sifati, u ko'chma ma'noda ham qo'llanadi. Shoir To'ra Sulaymon bu sifatni *qaro* tarzida, okkazonal ma'noda keltirib, umr yo'lining notekisligini, peshonasining sho'riligini ifodalashda qo'llagan:

*Ayro edi asli yo 'limiz,
Alhol qoldi ayroligicha.
Haqligicha qoldi yo 'li oq,
Yo 'li **qaro qaroligicha**... [1]
O'ylaysan yil bo 'yi mudom bahor deb,
Bahorsiz bu dunyo bee'tibor deb.
Hammaning bir xilda tashvishi bor deb,
Barchani o'zingday **pok, beg'ubor** deb...
Havasim keladi senga, bolajon...[2]*

Pok va *beg'ubor* so'zlari *toza, pokiza, gard-g'ubor, kir, chang kabilardan xoli, musaffo* ma'nolarini ifodalab keladi. Shoir bu sinonimlarni ko'chma ma'noda ko'nglida yomonligi yo'q, pok, sofdil, sidqidil bolaga nisbatan okkazonal ma'noda ishlatib, ta'sirchanlikni oshirgan. Shu she'rining boshqa bandida *pok, beg'ubor* so'zlarining sinonimi bo'lgan *begard* so'zidan ham o'rinli foydalanadi. Bu orqali shoir tilning sinonimlarga boyligini, fikr ifodalashning rang-barang yo'llari borligini ko'rsatadi:

Tilning lug'aviy birliklaridan (leksemalardan) tashkil topadigan ma'nodoshlik qatorlari hamisha ochiq bo'ladi. Ya'ni ma'nodoshlik qatorlari, birinchidan, davr taqozosi, nutqiy vaziyat, jamiyat talabi asosida to'ldirilib borishi mumkin. Ikkinchidan, ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, frazeologik iboralar, mustaqil leksema va sememalarining turlari, yasama so'zlar, so'z birikmalari, so'zlarining nutqiy ko'chma ma'nolari bilan bog'lanib, o'z qatorini nutqiy ma'nodoshlik (kontekstual sinonimiya) vositalari bilan kengaytirib boradi.

*Oyning o'n beshimas bari qorong'u,
Ko'lankasiz, tiniq kunlarim kam.
*Xun bo'lmish **jigarim**, qon bo'lmish **bag'rim**,**

Og'zimda qora qon – oldimda jom... [3]

She'rdagi ko'lanka so'zi bu o'rinda tashvish, g'am, azob iskanjasidagi odam ichki ruhiy holatning ifodasi bo'lib kelgan. Shoir bu so'zga belgiga ega emaslik -siz qo'shimchasini qo'shgan. *G'amsiz, tashvishsiz, azobsiz* sinonimik qatoriga *ko'lankasiz* so'zini qo'shib, so'zning ma'no qamrovini kengaytirgan. Ushbu misralarda *ko'lankasiz, tiniq* so'zlari okkozialanal ma'noda sinonimlar qatorini tashkil etgan. Chunki ushbu so'zlar nutqiy vaziyatdan tashqarida sinonim emas. Ammo shoirning topqirligi sabab ular *azobsiz va yaxshi o'tgan kunlar* ma'nosida nutqiy sinonimik uyani tashkil qilgan. Shuningdek, she'riy parchadagi *jigarim va bag'rim* ma'nodosh so'zlari ham iztirob iskanjasidagi inson ruhiy holatini bo'rttirib ko'rsatishda qo'l kelgan.

Shuni aytish mumkinki, okkazionalizmlar asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish bilan bir qatorda yozuvchining so'z qo'llash bilan bog'liq mahoratini, his-tuyg'u, tushunchani ifodalashdagi qobiliyatini belgilovchi vosita sifatida va ijodkorning o'zbek tili tasviriy imkoniyatlaridan badiiy foydalanish mahoratini o'ziga xos tarzda ifodalab, milliy adabiy til taraqqiyoti, nutq boyligi uchun xizmat qiladi.

Har bir ijodkorning okkozializmlardan o'z o'rnida mahorat bilan foydalanishi – fikrni sodda, tushunarli va aniq ifodalash imkonini beradi. ijodkor badiiy zehniyatida so'zlar muntazam tizim, bu tizimdagi har bir unurning o'z aniq va mustahkam o'ri bor. So'zning poetik qiymati esa pragmatik omillar ta'sirida o'z mohiyatidan tashqariga chiqmagan holda jilvalanib turadi. Poetik tafakkur va mahorat ana shu jilvani ta'minlash uchun uyg'un faollik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Тўра Сулаймон. Гул бир ён, чаман бир ён. – Тошкент: Чўлпон, 1996. – Б. 8.
2. Тўра Сулаймон. Истар кўнгил. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – Б. 12.
3. Тўра Сулаймон. Сайхон. – Тошкент: Шарқ, 2003. – Б. 10.
4. Ёлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. Ўз.
5. Mirtojiev M. “O'zbek tilida polisemiya”. Toshkent., 1975-yil.
4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. –Т.,2007. (Tokhtasinova O. Lexical occasionalisms in the Uzbek language and their artistic and aesthetic features: Candidate of Philological Sciences. –Т.,2007.)
5. Abdurahmonova M.T, MamajonovaD.A. “Okkazionalizmlar va ularning badiiy-estetik vazifasi”. “Humanitarian Research”. Polland.
6. Ibragimov X. THE PEOPLE IN THE POETIC RISE OF TORA SOLOMON'S WORK THE PLACE OF PROVERBS //Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI. – 2020.
7. Ibragimov, X. (2022). Dars mashgulotlarining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: Yechimlar va istiqbollor, 1(1), 551–554. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5258>

8. Hamdamovich I. K. TURA SULAYMON'S SKILLS OF USING ANTONYMS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2022. – T. 3. – №. 03. – S. 71-75.
9. Ibragimov X. Tura Sulaymon ijodining poetik yuksalishi //Arxiv Nauchnix Publikatsiy JSPI. – 2020.
10. Ibragimov, Xayrulla. (2021). TO'RA SULAYMON ShE'RIYatIDA METAFORANING O'RNI . FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI, 4(4). izvlecheno ot <https://hp.jdpu.uz/index.php/hp/article/view/2052>
11. Ibragimov X. TURA SULAYMON 'S MASTERY OF THE ARTISTIC USE OF SYNONYMS //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
12. Ibragimov X. FEATURES OF PEOPLE'S LANGUAGE AND LITERARY LANGUAGE //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
13. Ibragimov X. THE PEOPLE IN THE POETIC RISE OF TORA SOLOMON'S WORK THE PLACE OF PROVERBS //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
14. Ibragimov, X. (2022). Dars mashgulotlarining samaradorligini oshirishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 551–554. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5258>
15. Hamdamovich I. K. TURA SULAYMON'S SKILLS OF USING ANTONYMS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES (2767-3758). – 2022. – T. 3. – №. 03. – C. 71-75.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MORFOLOGIK USULDA HOSIL BO'LGAN EVFEMIZMLAR

Xaydarova Shoiraxaydarova qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

shoiraxaydarova@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida morfologik usulda yasalgan evfemizmlarning lingvistik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Evfemizmlar - bu noqulay, qo'pol yoki tabu hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq ifodalash uchun qo'llaniladigan so'z va iboralardir. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda evfemizmlar affiksatsiya, kompozitsiya, semantik innovatsiya va boshqa morfologik usullar yordamida hosil qilinadi. O'zbek tilida bu jarayonda -lik, -mand, no-, be- kabi affikslar va affiksoidlarning ahamiyati katta bo'lsa, ingliz tilida -er, -ment, -tion kabi suffikslar evfemik so'zlarni yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: evfemizm, morfologiya, affiksatsiya, kompozitsiya, tabu, lingvistik yumshatish, o'zbek tili, ingliz tili.

Tilshunoslikda evfemizm (yunoncha “eu” – “yaxshi” va “pheme” – “nutq”) deb, qo'pol, noqulay yoki tabu hisoblangan tushunchalarni yumshoqroq, qabul qilinadigan